



INSTITUTIONAL CHANGES IN HISTORICAL SCIENCE IN UZBEKI-STAN IN THE 20-30S OF THE TWENTIETH CENTURY (Based on the example of Samarkand State University)

Salimakhon Numandjanovna Madyarova

Doctor of philosophy (PhD)

Department of World History

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

madyarova-75@mail.ru

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Commissariat of Public Education, Higher Pedagogical Institute, Uzbek Higher Pedagogical Academy, professors, students, historical knowledge, postgraduate studies, and repressive policy.

Received: 16.09.25

Accepted: 17.09.25

Published: 18.09.25

Abstract: The article explores the history of Samarkand State University during the 1920s and 1930s. It discusses the university's establishment as one of the largest higher education institutions in the republic, and its current role in training scientific and pedagogical personnel. Through an analysis of archival documents and periodical press materials, the article also examines the impact of political processes during this time on the development of historical knowledge in the republic.

XX ASRNING 20-30-YILLARIDA TARIX FANINIDAGI INSTITUTSIONAL O'ZGARISHLAR (Samarqand davlat universiteti faoliyati misolida)

Salimaxon Numandjanovna Madyarova

kafedrasi dots., t.f.n.

O'zMU Tarix fakulteti "Jahon tarixi"

madyarova-75@mail.ru

Toshkent, O'zbekistan

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Turkiston Xalq Maorifi nozirligi, Oliy Pedagogika instituti, Ўзбек педагогика академияси, professor-o'qituvchilar, talabalar, tarixiy bilimlar, aspirantura, qatag'onlik siyosati.

Annotatsiya: Maqloda bugungi kunda respublikada ilmiy va pedagogik kadrlar yetishtirishda muhim o'rinn tutayotgan yirik oliy o'quv yurtlaridan biri – Samarqand davlat universitetining tashkil topishi va uning XX asrning 20–30 yillardagi faoliyati bilan bog'liq masalalar hususida so'z yuritiladi. Shuningdek, mavzuga tegishli arxiv hujjatlari

va davriy matbuot materiallari tahlili asosida o‘rganilayotgan davr siyosiy jarayonlarining respublikadagi tarixiy bilimlar rivojiga ta’siri ham ko‘rsatib beriladi.

**ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ ИСТОРИЧЕСКОЙ НАУКИ В
УЗБЕКИСТАНЕ в 20- 30-е ГОДЫ XX ВЕКА**
(На примере деятельности Самарканда государственного университета)

Салимахон Нуманджановна Мадьярова
кандидат исторических наук
доцент кафедры Всемирной истории
Национального университета им. Мирзо Улугбека
madyarova-75@mail.ru
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Народный комиссариат просвещения Туркестана, Высший педагогический институт, Высшая педагогическая академия, Узбекский государственный профессора-преподаватели, исторические знания, регрессионная политика.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы, связанные с созданием и деятельностью в 20-30 годы XX в. Самарканского государственного университета – одного из крупнейших высших учебных заведений, играющего сегодня важную роль в подготовке научно-педагогических кадров в республике. Также, на основе анализа архивных документов и материалов периодической печати, показано влияние политических процессов изучаемого периода на развитие исторических знаний в республике.

Kirish. O‘zbekiston tarixi sahifalarida XX asrning 20-30- yillari alohida o‘rin tutadi. Bu davrda sodir bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlar jamiyat hayotining barcha sohalari, jumladan fan va ta’lim rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Sovet hokimiyatining dastlabki yillarda bu sohalarda ilk qadamlar qo‘yilgan bo‘lsa, 20-yillardan boshlab sovet fani va ta’lim tizimining sovetcha shakli mustahkamlana boshladi, buning uchun markscha-leninchha kadrlar yetishtirish, ilmiy-ishlarini muvofiqlashtiruvchi muassasa va markazlar vujudga keltirishga alohida e’tibor qaratildi. Butun Sovet ittifoqi tarkibidagi boshqa respublikalar qatori O‘zbekistonda ham respublikada faoliyat yuritib kelayotgan ilmiy jamiyat va muassasalar faoliyatiga sovet davlati nazorati kuchaytirildi. Ilmiy tadqiqotlar esa sotsialistik jamiyat qurish asoslari moslashtila boshladi. Shuningdek, yangi shakldagi ilmiy tadqiqot muassasalari, markazlar vujudga keltirildi, sotsialistik mafkura bilan qurollantirilgan markschi-leninchi ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratila boshladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:

O‘zbekiston Milliy arxividagi R 94, R 837 fondida saqlanayotgan arxiv hujjatlari, O‘zbekiston Milliy kutubxonasidagi davriy matbuot materiallari va mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlili Samarcand shahridagi sobiq Pedagogika instituti negizida 4 yillik ta’lim tizimiga asoslangan Oliy Pedagogika institutining tashkil etilishi ham ana shu jarayonlar davom etayotgan bir davrga to‘g‘ri keldi. 1927 yilning 22 yanvarida tashkil etilgan mazkur muassasa respublikada pedagogik va ilmiy kadrlar yetishtirish, jamiyat hayotining turli sohalariga doir ilmiy tadqiqot ishlari o‘rganilayotgan davr va bundan keyingi rivojida muhim o‘rin tutganligini ko‘rsatdi. Samarcand Davlat universitetining o‘rganilayotgan davr tarixi bilan bog‘liq masalalar sovet davrida ham, O‘zbekiston mustaqillikkka erishgandan keyingi yillarda respublikadagi ijtimoiy fan sohasi vakillarining bir qator ishlarida o‘rin olgan. Ularni mazkur muassasada faoliyat olib borgani tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyati, XX asrning 20-30 yillarda vujudga keltirilgan ilmiy muassasalar, respublikadagi oliy ta’lim tizimi bilan bog‘liq tadqiqotlarda ma’lum darajada ma’luotlar berilgan. Bu haqda 2023 yilda mazkur ta’lim muassasasi tarixiga doir maxsus umumlashgan tadqiqot olib borgan D.T. Mamarasulov ham tilga olib o‘tadi[1, 2023, 56 b].

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuni adqiq etishda arxiv fondlari hujjatlari ilmiy adabiyotlar va davriy nashrlar materiallari bilan qiyosiy tahlil qilinib, tarixiy–qiyosiy metoddan foydalanildi. Shuningdek, manbalar va olingan ma’lumotlar analitik metod orqali izohlab berildi.

Tahlil va natijalar. Oliy Pedagogika institutiga dastlab N.A. Merkulovich, so‘ng S.I.Frolov, institutning ko‘philik ilmiy xodimlari asosida O‘zbek ilmiy tadqiqot instituti vujudga keltirilgan davrda (1928-1931 yy) Mannon Ramz va (?) Muxiddinov, institut Pedagogika akademiyasiga aylantirilgach, Karim Abdullayev (1931-1935 yy), O‘zbek Pedagogika akademiyasi Pedagogika ilmiy–tadqiqot institutiga aylantirilgandan so‘ng ushbu muassasaga I. Alimov (1937 y.) rahbarlik qilgan.

Institut 3 ta: Ijtimoiy iqtisodiy, Tabiiy geografiya, Fizika texnika bo‘limlari bilan ish boshlangan. Birinchi o‘quv yilida Oliy Pedagogika institutidagi professor o‘qituvchilar soni 17 tani tashkil etgan bo‘lib, xodimlari tarkibi madrasalarda tahsil olgan, maorif institutlari hamda Rossiyyadagi oliy o‘quv yurtlarini tamomlagan kadrlardan tashkil topdi. Jumladan, institutda Po‘lat Soliyev, O.Xoshimov (Moskvadagi Qizil Professurani tamomlagan), A.Fitrat, G‘ozi Olim Yunusov, A.Alaviy (Leningrad universitetining Filologiya fakultetini tamomlagan) singari milliy ziylolar, Turkiston ilmiy va madaniy hayotiga o‘ziga xos xissa qo‘shgan olimlar va pedagoglar – V.A.Vyatkin, G.I.Savitskiy (Sankt Peterburgdagi Tarix filologiya institutini tamomlagan), S.I.Frolov, S.A. Lyaskovskiy, M.P.Repnikov, A.M.Titov, Poroshin prof. A.B.Selixanovich, Z.Xodjayev A. Alaviy, A.I.Ivanov, N.N. Kuznetsov (Qozon universitetini tamomlagan)lar faoliyat olib borgan. Biroq bu davrda institutdagi oliy ma’lumotlilar soni faqat 9 tani tashkil etgan. Institut

jamoasining partiyaviylik darajasi ham past edi: partiyasiz professor-o‘qituvchilar soni 15 ta ta, 2 tasigina Kommunistik partiya a’zosi bo‘lgan.

1928/1929 o‘quv yiliga kelib, institutning uchta bo‘limi o‘rniga 2 ta fakultet: 1. Maktab fakulteti (Ijtimoiy iqtisodiy bo‘limi bilan); 2. Tashkiliy axborot fakulteti (Asosiy bo‘lim bilan) vujudga keltirilgan. Bu yili muasadadagi jami 28 ta ilmiy xodimdan 12 tasi ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishida ta’lim beruvchi professor o‘qituvchilarni tashkil qilgan. Professor-o‘qituvchilar bu davrda “Umumiy tarix”, “Musulmon Sharqi va O‘rta Osiyo tarixi”, “O‘zbek xalqi tarixi”, “Siyosiy iqtisod”, “VKP (b) tarixi”, “Ijtimoiy shakllar rivojlanishi tarixi”, “Xarbiy ish”, O‘zbek adabiyotiga kirish”, “O‘zbek tili”, “Geografiya”, “Jamiyatshunoslik”, “O‘lkashunoslik” va boshqa fanlardan dars bergan. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, respublikada malakali ilmiy va pedagogik kadrlarga bo‘lgan ehtiyojning kattaligi tufayli institutdagi professor-o‘qituvchilarning aksariyati asosiy lavozimidan tashqari, qo‘sishimcha muassasa va tashkilotlarda ham ishlashiga to‘g‘ri kelgan. 1929 yil oxiriga borganda institutdagi professor o‘qituvchilarning soni deyarli ikki barobarga oshib, 48 tani (asosiy shtatda 42 ta) tashkil etgan. Biroq sovet oliv o‘quv muassasalrida ta’lim olgan o‘qituvchi va xodimlar 12 taga ko‘paygan xolos (1-jadval) [2, 1929, 52-varaq].

1-jadval

| Lavozimi | Fak-ik jihatdan | Asosiy ish o‘rinda | O‘rin-dosh | Pfritiya a’zosi | Sovet OO‘Ylarida ta’lim olganlar |
|-----------------|------------------------|---------------------------|-------------------|------------------------|---|
| Professorlar | 11 | 10 | 1 | — | — |
| Dotsentlar | 6 | 4 | 2 | 2 | 3 |
| Assistent | 16 | 15 | 1 | 7 | 4 |
| O‘qituvchilar | 8 | 6 | 2 | 3 | 2 |
| Laborantlar | 7 | 7 | — | — | 3 |
| Aspirantlar | — | — | — | — | — |
| Jami | 48 | 42 | 6 | 12 | 12 |

Shu o‘rinda 20 yillarning so‘ngi yillari vujudga keltirilgan O‘zbek davlat ilmiy tadqiqot instituti (O‘DITI) dastlabki yacheykasi ham Oliy Pedagogika instituti (VPI) professurasidan tashkil topgan. Buni mazkur ilmiy muassasaning nizomidan ham ko‘rsatib o‘tilgan. Biroq O‘DITI tarkibidagi Lingvistika va Tarix kafedralari esa birinchi yilda (1928 yilda S.M) faqat qisman ishlagan, shu bois bu kafedralarning rasmiylashtirilishi 1929 1930 yillarda amalga oshirish ko‘zdautilgan[3, 1929, 93-varaq].

O‘zbek davlat ilmiy tadqiqot instituti (O‘DITI)ning haqiqiy a’zoligiga 34 kishi kiritilgan bo‘lib, Ular qatoridan Oliy Pedagogika instituti xodilarining ancha qismni o‘rin olgan (2-jadval) [4, 1930, 2-varaq].

2-jadval

| | F.I.O | Partiyaviyligi | Ish joyi | Sho‘ba, kafedra |
|--|--------------|-----------------------|-----------------|------------------------|
| | | | | |

| | | | | |
|-----------|---------------|------------|---------------------------|---------------------|
| 1. | N.Krasnousov | Partiyaviy | Oliy pedagogika instituti | Pedagogika sho‘basi |
| 2. | Mustakayev | Partiyaviy | Oliy pedagogika instituti | Pedagogika sho‘basi |
| 3. | S.Lyaskovskiy | Partiyasiz | Oliy pedagogika instituti | Tarix sho‘basi |
| 4. | Zavedskiy | Partiyasiz | Oliy pedagogika instituti | Zoologiya kafedrasi |
| 5. | A.Titov | Partiyasiz | Oliy pedagogika instituti | Fizika kafedrasi |
| 6. | A.Fitrat | Partiyasiz | Oliy pedagogika instituti | Adabiyot sho‘basi |
| 7. | Selixanovich | Partiyasiz | Oliy pedagogika instituti | Pedagogika sho‘basi |
| 8. | A.Alaviy | Partiyasiz | Oliy pedagogika instituti | Pedagogika sho‘basi |

Talabalar soni ham yil sayin ortib borgan. 1927 yilda o‘qishga qabul qilingan talabalar 2 ta guruhgaga ajratilgan. 1–guruhda 26 ta (qo‘shimcha 6 ta erkin tinglovchi), talaba bo‘lib, ularning teng yarmini o‘zbek yoshlari tashkil qilgan. Ular orasida kelgusida O‘zbekiston fani va madaniyatiga juda katta xos xissa qo‘shgan shaxslar Yaxyo G‘ulomov, Buyuk Karimov, Maxdi Burnashevlar ta’lim olgan.

2- guruhdagi 17 ta (bunga qo‘shimcha yana 7 ta erkin tinglovchi) talaba qatorida R. Isayev, R. Raufov, A.B. Narziqulov hamda erkin tinglovchi S. Sharofutdinov singari talabalar ta’lim olgan. 1932/1933 o‘quv yillarda ularning sonini 2000 taga yetkazish ko‘zda tutilgan. Talabalarning partiyaviyligi, milliy tarkibiga kelsak, birinchi va ikkinchi o‘quv yilida partiya va komsomolga a’zo va nomzodlar jami talabalarning deyarli 2/3qismni tashkil etgan, 1929 yilning boshiga kelib, VLKSMga a’zolar 62,7%, partiyaga a’zo talabalar 15,8 %, partiyasizlar 1,5 % ni tashkil etgan. Qabul jarayonida ularning ijtimoiy kelib chiqishiga ham alohida e’tibor qaratilib, dehqon va ishchi oilasidan chiqqanlarlarga eng ko‘p o‘rin ajratilgan [5, 1929, 47-varaq]. 1929 yilning 1 noyabr holatiga “Ijtimoiy iqtisodiy” bo‘limning o‘zida jami 284 ta, Asosiy bo‘limda esa 36 ta talaba taxesil olgan.

1930 yilda asosan ta’lim muassasalari uchun pedagogik kadrlar tayyorlashga yo‘naltirilgan institut bu sohani ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o‘rganish va ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlashni o‘zining asosiy maqsadi sifatida belgilagan Akmal Ikromov nomidagi O‘zbek Pedagogika akademiyasiga aylantirilgan. Shu yildan O‘zbek Oliy Pedagogika akademiyasi fakultetlari soni yana bittaga ko‘payib, Agro pedagogika fakulteti ham qo‘shilgan.

Sovet hokimiyatining kapitalizm jamiyatini va imperializmga qarama- qarshi – sotsialistik jamiyat qurish uchun olib borgan g‘oyaviy kurashi bevosita ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan fanlar mazmunini yanada siyosiyashishiga olib keldi. Akademianing “Ijtimoiy iqtisodiy” bo‘limi 1929/1930, 1930/1931 o‘quv yillarida talabalarga bundan avvalgi yillarda o‘qitib kelinayotgan “Jamiyatshunoslik metodikasi”, “Jahon iqtisodiyoti geografiyasi” fanlari, bundan tashqari alohida tarixiy sikldagi “Tarix” hamda “O‘rta Sharq tarixi”, “O‘zbekiston tarixi”, “SSSR iqtisodiy

geografiyasi”, “Harbiy fanlar” bilan bir qatorda “Ijtimoiy formalar rivojlanishi tarixi”, “Diamat”, “Ismat”, “Leninizm”, “Qishloq xo‘jaligi va iqtisodiy siyosat”, “G‘arb sanoat kapitalizmi tarixi”, “Sanoat kapitalizmi davrida SSSR xalqlari tarixi”, “Imperializm davri tarixi”, “VKP (b) tarixi”, “Sanoat to‘ntarishiga qadar G‘arb tarixi”, “Krepostnoy xo‘jalik davrida SSSR xalqlari tarixi”, “Hozirgi (joriy) siyosat”, “Sovet xo‘jaligi nazariyasi”, bo‘yicha mashg‘ulotlarni o‘tish ham rejallashtirilgan. lenincha milliy siyosat doirasida ta’lim muassasalarda ta’lim olayotgan yerli xalqlar sonini ortishiga alohida e’tibor qaratilib, ularning sonini bir necha barobarga ko‘paytirishga erishilgan bo‘lsada, sovet hukumatining 20-yillar oxiri – 30 yillar boshida “sovet davlati siyosatiga yet unsurlar”ni tozalash bilan bog‘liq chora-tadbirlari Pedakademiyani ham chetlab o‘tmadi. Ta’lim muassasi va partiya tashkilotlari yig‘inlarida, matbuot sahifalarida ana shunday toifaga kiruvchi shaxslarni qattiq tanqid ostiga olish, ularni o‘rnini bosuvchi markscha–lenincha kadrlarni tayyorlashga e’tibor kuchaydi.

1930 yilning 2 iyunidagi O‘zSSR XMN Xay’ati yig‘ilishida ham “kadrlarga bo‘lgan katta” ehtiyojdan kelib chiqib Pedakademianing “Ijtimoiy iqtisodiy” bo‘limi 3 kurs talabalarini o‘qishini muddatidan avval bitirish masalasi ko‘rib chiqilgan.

Akademiya ma’muriyatining 1930 yilgi “O‘zbek Davlat Pedagogika Akademiyasi V qurultoya” deb nomlangan ma’lumotnomma xatida ham Pedagogika akademiyasi partiya va sovet hukumatinin buyurtmasini bajarib, “oz bo‘lsada, lekin sinfiy kurash keskinlashgan bir vaqtda “yetarli darajada markscha lenincha nazariya va amaliyot tayyorgarligini ko‘rgan, 37 kishi (25 ta o‘zbek, 5 tatar, 2 ta tojik, 4 ta rus, 1 polyak)dan iborat birinchi madaniy kurashchilarini – talabalarini chiqarganini” ” [6, 1930, 76-varaq] ta’kidlab o‘tadi.

Shu yilning boshida SSSR Davlat rejasiga qoshidagi Reja Komissiyasining Ittifoq respublikalarining barcha nozirliklariga besh yillik ilmiy tadqiqot va Kechki Pedagogika institutlaridan tashqari barcha oliy ta’lim muassasalarida kadrlar masalasini qayta ko‘rib chiqish bilan bog‘liq (199 sonli) qarori qabul qilinib, ushbu qaror asosida SSSR Davlat rejasiga Prezidiumi a’zosi 1930 yilning 12 noyabrida O‘zSSR XNKga telegramma yuborib, unda “1929 yil oktabr oyidagi o‘quv muassasalari tizimini qaytadan ko‘rib chiqilishi, muassasalarda o‘qitish holati va uning metodlarini yangi tartibda yo‘lga qo‘yilishini ko‘rsatib o‘tadi. Aniqroq qilib aytganda Respublika Xalq Maorifi nozirligi “yangi tipdagi ilmiy pedagogik kadrlar, yangi mutaxassislar bilan bog‘liq masalalar sotsialistik qurilish, ayniqsa qishloq xo‘jaligi sanoati va iqtisodiy fanlarning rivojlanishi ehtiyojidan kelib chiqib yetarli darajada yoritib berishi kerak” [7, 1930, 2-varaq] edi. Ilmiy pedagogik kadrlarni malakasiga ko‘ra imkon qadar quyidagi tarzda taqsimlash taklifi ham kiritilgan:

Rahbariyat – oliy kadrlar (direktor, professorlar);

Katta ilmiy xodimlar (dotsent, privat dotsent va shunga o‘xshash o‘qituvchilik lavozimlari);

O‘rta xodimlar (katta va kichik o‘qituvchilar, assistent va boshqalar). Aspirantlar esa alohida ko‘rsatiladi. Telegrammada shuningdek, “o‘qituvchi ilmiy kadrlarning sifati bilan bog‘liq nozik joylarini alohida va chuqur aniqlash, ularga ijtimoiy sinfiy nuqtai nazardan tavsif berish va bu borada olib boriladigan chora tadbirlarni yaxshilash kerak”ligi ham alohida qo‘shib qo‘yilgan. Shu kunning o‘zidayoq (ya’ni 12 noyabrda) O‘zSSR XNK o‘z tarkibidagi Ilmiy bo‘lim (Morev)ga 5 yillik ilmiy kadrlar rejasini ishlab chiqish va nozirlikning Reja byurosiga yuborish to‘g‘risida topshiriq bergan. Shundan so‘ng “sinfiy dushmanlarga” qarshi kurash masalalari Pedakademiya yig‘ilishlarida ham tez-tez muhokama qilinadigan bo‘lgan. Misol uchun, 1932 yilning 7 yanvarida “Pravda Vostoka” gazetasida “O‘zbekiston Xalq Maorifi nozirligi kimni rag‘batlantirmoqda” nomli maqola[8, 1930, 76-varaq] nashr qilinib, unda O‘zSSR XMNning qarori bilan 6 oylik muddatga Leningrad shahriga ilmiy safarga ketishni rejalashtirgan “burjua millatchi ziyolisi”, O‘zbek Pedakademiyasining “mashhur reaksiyon professor”i A. Fitrat masalasi ko‘rib chiqilgan. Yig‘ilish uni bunday safarga loyiq emas, deb hisoblab, Maorif noziri (?) Jurgenov imzosi bilan chiqarilgan qarorni bekor qilish to‘g‘risida qaror qabul qilgan. “Pravda Vostoka”, “Komsomolets Vostoka” gazetalarisiing shu kunnardagi e’lon qilingan “Chirigan liberalizm botqog‘ida”, “Chirigan liberalizmning namoyon bo‘lishi sababli Samarqand Pedakademiyasi partkomi byurosini tarqatib yuborildi” nomli maqolalarida ham aynan mana shu masalalar xususida so‘z borgan[9, 1932, 7 yanvar].

Mazkur maqolalar nashr etilgandan so‘ng institut rahbariyati O‘zbek Sotsialistik yer ishlari instituti professori (?) Jingarevga ham ushbu muassasadan ish berishdan bosh tortgan, A. Sa’diy hamda (?) Ledkovskiylar ham Pedakademiya buyrug‘i asosida ishdan bo‘shatgan, A. Fitratning “masalasi” ham partiya tashkiloti muhokamasiga qo‘yilgan. Shu bilan birga nafaqat Fitrat, balki Pedakademianing “Adabiyot” kafedrasini yig‘ilishlarida A. Fitratning “so‘nggi aksilinqilobiy kutilmagan hamlalari” guvohi va partiya va komsomol saflarida bo‘lgan shaxslaring ishini ham zudlik bilan ko‘rib chiqish kerakligi aytilgan. Shahar partiya qo‘mitasi A. Sa’diy kabi bir qator professorlarning boshqa OO‘Yularida, Davlat Ilmiy Kengashi (GUS)da o‘z faoliyatlarini hali ham davom ettirayotgani ta’kidlab o‘tiladi.

Akademianing o‘quv dasturi ham partiya tashkilotlarining nazorati ostida qaytadan ko‘rib chiqilgan. YA’ni mashhg‘ulotlar markscha leninchcha metodologiyaga moslashtirilgan, o‘quv sifati va fanlarning partiyaviyligiga oid ishlar yo‘lga qo‘yilgan.

Pedakademiya tizimida o‘tkazilgan partiyaviy “tozalov” kampaniyalari nafaqat professor-o‘qituvchilar, balki bu yerda ta’lim olayotgan bir qancha talabalarning o‘qishdan chetlatilishiga sabab bo‘ldi. Misol uchun, 1932 yilning o‘zida Pedakademianing 26 ta talabasi “sinfiy yot element” deb topilgan.

1932 yil 1 yanvardan 10 mayiga qadar Pedakdemiyada jami 834 talaba, 86 ta aspirant, Ijtimoiy-adabiy kafedrasida esa 1932 yilning 1 apreli holatiga 208 ta talaba taxesil olgan. Shu mudat oralig‘ida 10 ta talaba “yot unsur” sifatida talabalar safidan chiqarilgan. Masalan, Akademianing Ijtimoiy iqtisodiy fakultetining mazkur talabalari “quloq oilasidan chiqqanligi”, ularning A.Sa’diyning ishdan chetlashtirilishi va u kabi xodimlarni yangi proletar xodimlar bilan almashtirilishiga qarshi chiqishi, “dohiyalar portretini, VKP (b) tarixi, “G‘arb tarixi” kabi bir qancha siyosiy adabiyotlar va darsliklarni” yoqib yuborgan”likda ayblanib, o‘qishdan chetlatilgan[10, 1932, 350-varaq].

Muassasa tizimidagi aspirantura yo‘nalishiga to‘xtaladigan bo‘lsak, 1937 yil 15 iyulda O‘zbek Davlat Pedagogika ilmiy tadqiqot instituti direktori lavozimida faoliyat olib borgan I.Alimovning bergan ma’lumotiga ko‘ra, ushbu ta’lim dargohida aspirantura yo‘nalishi 1934 yilning boshidan tashkil etilgan. Shu yili ikki marta tanlov o‘tkazilgan: 8 ta fevral mart oylarida, 5 tasi sentabr oyida aspirant o‘qishga qabul qilingan. Boshqa 1937 yilgacha qabul bo‘lmagan. 1934 1937 yillarda o‘zlashtira olmagan va boshqa sabablar bilan 10 ta aspirant qolgan. Ular asosan pedagogika tarixi, pedagogika nazariyasiga ixtisoslashgan. 10 ta aspirantning hammasi 1937 yilning 15 iyunida o‘qishni tamomlagan. Mazkur aspirantlar o‘qishi davomida metodologik fanlardan “Ismat”, “Diamat”, “Leninizm”, “Falsafa tarixi” fanlari bo‘yicha ma’ruzalarni Marksizm Leninizm institutida tinglagen. Aspirantlarga shuningdek, “Umumiy tarix” fanidan ham mashg‘ulotlar kiritilgan.

1938 yilda esa muassasa qoshidagi “Tarix”, “Adabiyot va lingvistika” kafedralarida aspiranturani vujudga keltirish kun tartibiga qo‘yilgan. Shu munosabat bilan O‘zbek Davlat universitetining 1938 yilgi rejasiga kiritilgan 20 ta aspirant (100 %), shu jumladan 4 ta aspirant “SSSR xalqlari tarixi” ixtisosligi bo‘yicha qabul qilingan[11, 1938, 22-varaq].

Sovet hukumatining 30-yillardagi qatag‘onlik siyosati ushbu muassasani ham chetlab o‘tmagan. Tadqiqotchi B.Irzayev yozganidek, Karim Abdullayev ham “O‘zDU rektori lavozimida ishlagan kezlarida A.Fitrat, B.Cho‘ponzoda, G‘ozi Olim Yunusov, Muso Saidjonov, Po‘lat Soliyev, Narzulla Inoyatov kabi tarixchi olimlarni qo‘llab-quvvatlagan”i uchun millatchilik, trotskiy chilikda ayblangan edi [12,].

“Eski” va milliy ziyorilarga bo‘lgan salbiy munosabat sovet hukumatining respublikada ilmiy va pedagogik kadrlar yetishtirish bilan bog‘liq ishlariga ham sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatgani shubhasiz. Buni quyidagi raqamlardan ko‘rishimiz mumkin. 1938 yil kuzi holatiga O‘zSSR XMNligi qoshidagi universitet, pedagogika institutlarida jami 612 ta o‘qituvchi faoliyat olib borgan. OO‘Yularini o‘qituvchilar bilan ta’minlanish darajasi esa 30 % ni tashkil etgan. Rejada tasdiqlangan 127 ta professor emas, 67 ta, 372 ta emas 195 ta dotsent faoliyat olib borgan. Pedagogik kadrlarning ilmiy malakasi ham yuqori bo‘lmagan, ya’ni 67 ta professordan faqat 17

tasi (25 %i), 195 ta dotsentning 62 tasi (30 %i) ilmiy darajaga ega bo‘lgan. OO‘Yularida o‘qitiladigan ko‘pgina fanlar uchun ilmiy xodimlar yetishmagan. Maorif nozirligi tizimidagi OO‘Yularining o‘zi uchun 257 ta (shu jumladan “Ijtimoiy iqtisod” va “Tarix” fanlaridan 31 ta ilmiy xodimga ehtiyoj sezgan.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, Samarqand davlat universitetining tashkil etilishi, murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar va g‘oyaviy qarama-qarshiliklar davriga to‘g‘ri keldi. Faoliyatining dastlabki o‘n yili davomida mazkur tarkibi, tuzilishi, yo‘nalishi bir necha marta o‘zgartirildi. Unda o‘qitiladigan fanlar, ilmiy-tadqiqot yo‘nalishlari siyosiylashtirib borildi. Bu esa fikr va ijod erkinligi yo‘qolib, bora-bora birt omonlama va siyosiylashgan qarashlarning shakllanishiga, ayniqsa ijtimoiy fanlarning davlat buyurmasini bajaruvchi, targ‘ibot quroliga aylanib qolishiga olib keldi. Ushbu ta’lim dargohining vujudga kelishi va rivojiga o‘ziga xos xissa qo‘sghan milliy ziyyolilarning ko‘pchiligi sovet hokimiyatining qatag‘onlik siyosati qurbaniga aylandi. Biroq ular tomonidan keljakka qoldirilgan meros, bu dargohdan yetishib chiqqaan ilmiy-pedagogik kadrlar Samarqand davlat universiteti tarixida muhim iz qoldirdi.

Foydalaniqgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mamarasulov D.T. Samarqand Davlat universitetining tarixiy ildizlari va taraqqiyot bosqichlari. Tarix fan. falsafa dok. (PhD) diss. avtoref. – Samarqand, 2023.56 b.
2. O‘zR Milliy arxivi. R 94 fond. 5 ro‘yxat. 165 yig‘majild. 52 varaq
3. O‘zMA. R.94 fond 5 ro‘yxat. 191 yig‘majild. 93 –varaq.
4. O‘zR Milliy arxivi. R 94 fond. 5 ro‘yxat. 165 yig‘majild. 2-varaq.
5. O‘zR Milliy arxivi. R 94 fond. 5 ro‘yxat. 165 yig‘majild. 47-varaq.
6. O‘zR Milliy arxivi. R 94 fond. 5 ro‘yxat. 165 yig‘majild. 76-varaq.
7. O‘zR Milliy arxivi. R-94 fond.5 ro‘yxat. 579 yig‘majild. 2 varaq.
8. Васин, Семенов. Кого поощряет Наркомпрос Узбекистана // Правда Востока. 1932 ,7 января.
9. O‘sha joyda
10. O‘zR Milliy arxivi. R 94 fond. 5 ro‘yxat. 165 yig‘majild. 350 varaq.
11. O‘zR Milliy arxivi. R 837 fond. 32 ro‘yxat. 1311 yig‘majild. 22 varaq.
12. Irzayev B. Ishi mash’um “uchlik” tomonidan 20 daqiqada ko‘rib chiqilgan va o‘lim jazosi berilgan jadid // oyna.uz